









**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma'lumot)**

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 391,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 94,4 mln. AQSh dollariga yoki 31,8 % ga ko'paydi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-iyul, ming AQSh dollari)**

	2020-yil	2021-yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	296 765,1	391 196,5	131,8 %	x
Eksport 	199 031,9	255 453,9	128,3 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	197 847,6	253 904,7	128,3	99,4
 <i>xizmatlar</i>	1 184,3	1 549,1	130,8	0,6
 <i>Oltin</i>	-	-	-	-
Import 	97 733,2	135 742,6	138,9 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	92 015,0	129 929,4	141,2	95,7
 <i>xizmatlar</i>	5 718,2	5 813,2	101,7	4,3
 Saldo	89 780,9	115 205,2	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 255,4 mln. AQSh dollariga (28,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 135,7 mln. AQSh dollariga (38,9 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 119,7 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

SSA – 93,2
Eksport – 70,6
Import – 22,6



Turkiya

SSA – 66,1
Eksport – 58,5
Import – 7,6



**Rossiya
Federatsiyasi**

SSA – 68,2
Eksport – 46,5
Import – 21,7



Qozog'iston

SSA – 38,0
Eksport – 25,3
Import – 12,7



Latviya

SSA – 21,9
Eksport – 19,5
Import – 2,4



Ukraina

SSA – 10,8
Eksport – 10,2
Import – 0,6



**Qirg'iz
Respublikasi**

SSA – 5,4
Eksport – 3,0
Import – 2,4



Afg'oniston

SSA – 2,7
Eksport – 2,7
Import –



**Koreya
Respublikasi**

SSA – 15,3
Eksport – 2,0
Import – 13,3



Turkmaniston

SSA – 1,9
Eksport – 0,6
Import – 1,3

Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (27,6 %), Turkiyada (22,9 %), Rossiya Federatsiyasida (18,2 %), Qozog'istonda (9,9 %), Latviyada (7,6 %), Ukrainada (4,0 %) va Qirg'iz Respublikasida (1,2 %) qayd etilgan.


uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da Qirg'iziston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, va Latviya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (70,6 mln. AQSh dollari), Turkiya (58,5 mln. AQSh dollari), Rossiya (46,5 mln. AQSh dollari) va Qozog'iston (25,3 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	99,0	68,8	93,2
Eksport	54,5	51,2	70,6
Import	44,5	17,6	22,6
Saldo	10,0	33,6	48,0
Turkiya	43,5	31,7	66,1
Eksport	29,4	30,8	58,5
Import	14,1	0,9	7,6
Saldo	15,3	29,9	50,9
Rossiya Federatsiyasi	89,9	59,5	68,2
Eksport	73,5	41,9	46,5
Import	16,4	17,6	21,7
Saldo	57,1	24,3	24,8
Qozog'iston	42,7	28,2	38,0
Eksport	29,4	20,1	25,3
Import	13,3	8,1	12,7
Saldo	16,1	12,0	12,6
Latviya	13,2	13,1	21,9
Eksport	10,9	10,9	19,5
Import	2,3	2,2	2,4
Saldo	8,6	8,7	17,1
Ukraina	4,0	2,4	10,8
Eksport	1,8	1,8	10,2
Import	2,2	0,6	0,6
Saldo	-0,4	1,2	9,6

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Qirg'iz Respublikasi	2,1	1,9	5,4
Eksport	1,7	1,1	3,0
Import	0,4	0,8	2,4
Saldo	1,3	0,3	0,6
Afg'oniston	0,6	1,7	2,7
Eksport	0,6	1,7	2,7
Import	-	-	-
Saldo	0,6	1,7	2,4
Litva	2,7	0,5	2,9
Eksport	0	0	2,2
Import	2,7	0,5	0,7
Saldo	-2,7	-0,5	1,5
Tojikiston	1,3	2,5	2,1
Eksport	1,3	2,5	2,1
Import	-	-	-
Saldo	1,3	2,5	2,1
Koreya Respublikasi	32,1	19,2	15,3
Eksport	10,3	2,4	2
Import	21,8	16,8	13,3
Saldo	-11,5	-14,4	-11,3
Iron	3,7	1,0	3,8
Eksport	0,2	-	1,7
Import	3,5	1	2,1
Saldo	-3,3	-	-0,4
Pokiston	0	0,5	1,6
Eksport	-	0,5	1,4
Import	-	-	0,2
Saldo	-	-	1,2



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Fransiya	0,0	0,1	2,0
Eksport	0,0		1,2
Import	0,0	0,1	0,8
Saldo	0,0	-0,1	0,4
Iroq	1,0	1,3	1,2
Eksport	1,0	1,3	1,2
Import	0,0	0,0	0,0
Saldo	1,0	1,3	1,2
Gruziya	0,4	0,2	1,2
Eksport	0,4	0,2	1,2
Import	-	-	-
Saldo	0,4	0,2	1,2
Turkmaniston	2,8	1,2	1,9
Eksport	0,3	0,4	0,6
Import	2,5	0,8	1,3
Saldo	-2,2	-0,4	-0,7
Estoniya	1,3	0,3	0,6
Eksport	1,0	0,3	0,5
Import	0,3	0,0	0,1
Saldo	0,7	0,3	0,4
Germaniya	2,4	0,8	6,2
Eksport	0,2	0,3	0,4
Import	2,2	0,5	5,8
Saldo	-2,0	-0,2	-5,4
Chexiya Respublikasi	0,7	0,1	6,9
Eksport	0,0	0,0	0,4
Import	0,7	0,1	6,5
Saldo	-0,7	-0,1	-6,1

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021 - yilning yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 32,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 5,1 % ga kamaygan.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-iyul oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 32,6 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 67,4 % ni tashkil etdi.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 174 tani tashkil etib, ular tomonidan 255,5 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 28,3 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,8 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (70,5 %), sanoat tovarlari (10,8 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (13,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	255453,8	147,7	100,0	88121,4	129,4	100,0	167332,4	159,6	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11 189,0	101,5	4,4	4 702,7	78,6	5,3	6 486,3	128,8	3,9
Ichimliklar va tamaki	24,7	151,5	0,0	24,7	151,5	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	33 517,2	134,4	13,1	3 603,0	223,3	4,1	29 914,2	128,3	17,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	213,2	0,5	738,1	403,2	0,8	462,9	121,8	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	179 937,2	127,9	70,4	72 150,7	110,9	81,9	107 786,5	142,5	64,4
Sanoat tovarlari	27 686,3	154,1	10,8	5 403,7	125,7	6,1	22 282,6	163,1	13,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3,3	130,4	0,0	3,3	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	345,9	20,4	0,1	192,4	274,9	0,2	153,5	9,4	0,1
Xizmatlar	1 549,1	130,8	0,6	1 302,8	168,8	1,5	246,3	59,7	0,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga (yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar-iyulga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-iyul, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,2	5,6	4,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,6	12,9	13,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,0	0,2	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,4	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	80,5	70,4	70,5
Sanoat tovarlari	8,2	8,8	10,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	1,0	0,1
Xizmatlar	0,5	0,6	0,6



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	8 435,1	98,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 562,0	246,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	161,9	539,7 b
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	26,6	3,5 b.
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,2	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	2,3	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	24,7	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	21 661,2	155,9
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	11 472,6	195,1
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	49,0	87,3
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	334,4	13,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	286,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	35,3	273,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	179 771,4	147,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	124,1	327,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	-

Bo'yardigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6,1	-
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	25 699,4	179,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	4,1	1,4
Cho'yan va po'lat	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 982,8	916,7
Metaldan tayyorlangan buyumlar	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3,3	132,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	65,4	408,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	265,5	16,2
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	14,0	-
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	337,9	122,2
Transport xizmatlari	844,1	142,1
Safarlar (turizm)	330,9	145,3
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-iyuldagi 49,3 % dan 2021- yilning yanvar-iyul oylarida 34,5 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 65,5 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 27,6 % i), Turkiya (22,9 %), Rossiya Federatsiyasi (18,2 %), Qozog'iston (9,9 %), Latviya (7,6 %), Ukraina (4,0 %) va Qirg'iz Respublikasi (1,2 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 91,4 foizni tashkil etmoqda.



**RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI**
(2021- yil yanvar-iyul, % da)



2021- yilning yanvar-iyul oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Turkiyaning ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 34 davlatdan 36 davlatga ko'paydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI
(yanvar-iyul)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	51215,4	70628,0	94,0	137,9	1	1
Turkiya	30765,9	58498,0	104,8	190,1	3	2
Rossiya	41928,6	46480,7	57,0	110,9	2	3
Qozog'iston	20140,1	25299,3	68,5	125,6	4	4
Latviya	10885,4	19516,2	99,5	179,3	5	5
Ukraina	1769,7	10249,3	100,6	579,2	9	6
Qirg'iz Respublikasi	1085,5	3006,5	64,2	277,0	13	7
Afg'oniston	1742,0	2746,0	309,0	157,6	10	8
Litva	0,1	2163,7	24,1	2226953,5		9
Tojikiston	2504,5	2134,6	188,8	85,2	7	10
Koreya Respublikasi	2433,3	1966,5	23,6	80,8	8	11
Iron	-	1742,7	-	-		12
Pokiston	460,7	1404,6	-	304,9	14	13
Fransiya		1240,7	-	-		14

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Iroq	1261,0	1177,2	127,5	93,4	11	15
Gruziya	196,1	1161,3	43,7	592,1	21	16
Turkmaniston	418,5	632,6	120,6	151,2	15	18
Estoniya	291,6	462,9	28,4	158,8	18	19

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul, ming AQSh dollari)**


XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	51 215,4	70 628,0	30 765,9	58 498,0	41 928,6	46 480,7	10 885,4	19 516,2
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	665,8	601,8	168,5	742,2	652,9	180,0	65,4	28,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12 338,9	18 726,2	452,4	7 523,1	1 518,0	2 337,8	2107,3	161,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	30 888,8	35 656,2	26 038,7	46 426,5	35 513,4	38 567,0	8 712,2	19 326,2

XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Sanoat tovarlari	5 727,4	15 489,6	4 105,6	3 805,0	3 822,4	4 565,8	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	-	-	3,3	0,5	-
Turli xil tayyor buyumlar	1 593,4	153,5	-	-	-	4,9	-	-
Xizmatlar	1,1	0,9	0,7	1,2	421,9	821,8	-	-

Xizmatlar eksporti hajmi 1 549,1 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 30,8 % ga ko'paydiganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (24,1 %), transport (54,5 %) hamda moliyaviy xizmatlar (21,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 4 486,0 ming AQSh dollari qiymatli 23 698,1 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 1 464,8 ming AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 75,4 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2 700,0 ming AQSh dollariga teng 16 069,6 tonna sabzavot, shuningdek, 539,0 ming AQSh dollari qiymatidagi 600,0 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-iyul, ming AQSh dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (93,3 %), Rossiya Federatsiyasi (4,0 %) va Italiya (2,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu

munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-iyul)**

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	24 073,1	5 072,7	85,2	23 328,9	4 184,3	93,3
Rossiya Federatsiyasi	1 541,7	675,3	11,3	334,5	180,0	4,0
Italiya	-	-	-	34,7	121,7	2,7
Xitoy Xalq Respublikasi	51,0	53,0	0,8	-	-	-

*- qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI








To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 25 805,5 ming AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 79,0 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (98,4 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (0,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 12 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 8 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-iyul, ming AQSh dollari)

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Paxtadan yigirilgan ip	10535,3	14 274,7	25 374,9
 Ipak va ipak mahsulotlari	380,6	87,6	91,9
 Naqshli mato	-	-	156,7
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	-	16,3	126,1
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	-	-	13,8
 Paxta mahsulotlari	9,0	41,0	41,6
 Paxtadan gazlamalar	-	-	-

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (15 544,9 ming AQSh dollari – 60,2 %), Rossiya Federatsiyasi (4 553,9 ming AQSh dollari – 17,6 %) va Turkiya (3 805,0 ming AQSh dollari – 14,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



ALOHIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI
(yanvar-iyul, ming AQSh dollari)



**DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI
EKSPORTI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, ming AQSh dollari)

Davlatlar	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	7 600,4	5 727,4	15 544,9
Rossiya Federatsiyasi	1 911,4	3 814,5	4 553,9
Turkiya	992,4	4 105,6	3 805,0
Pokiston	-	455,0	1 393,3
Qirg'iz Respublikasi	-	57,3	193,1
BAA	190,2		90,3
Portugaliya	-	-	84,5
Hindiston	-	87,6	36,6
Polsha	53,3	172,1	-


QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyul)

2021- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 135,7 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 138,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (42,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,8 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (13,8 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan

38,0 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 135,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5,8 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	135 742,6	138,9	100,0	39 262,9	118,1	100,0	96 479,7	149,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16 002,2	125,9	11,8	11 942,8	115,3	30,4	4 059,4	173,0	4,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8 239,4	89,9	6,1	8 203,6	92,7	20,9	35,7	11,2	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	11 115,1	213,4	8,2	4 216,3	202,3	10,7	6 898,7	220,9	7,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4 460,1	180,0	3,3	4 460,1	180,0	11,4	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	18 764,8	101,3	13,8	1 743,9	100,1	4,4	17 020,9	101,4	17,6
Sanoat tovarlari	8 945,3	177,2	6,6	5 564,9	183,1	14,2	3 380,4	168,3	3,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	58 075,2	186,0	42,8	1 282,9	32,3	3,3	56 792,3	208,4	58,9
Turli xil tayyor buyumlar	4 327,3	56,5	3,2	197,6	47,9	0,5	4 129,7	57,0	4,3

Xizmatlar	5 813,2	101,7	4,3	1 650,6	542,0	4,2	4 162,6	76,9	4,3
-----------	---------	-------	-----	---------	-------	-----	---------	------	-----

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 8,5 % dan 11,8 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 51,5 % dan 42,8 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 10,9 % dan 4,3 % ga tashkil etdi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,5	13,0	11,8
Ichimliklar va tamaki		-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,9	9,4	6,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,7	5,3	8,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	2,5	3,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,8	19,0	13,8
Sanoat tovarlari	5,4	5,2	6,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	51,5	32,0	42,8
Turli xil tayyor buyumlar	10,9	7,8	3,2
Xizmatlar	4,3	5,9	4,3

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan jami importdagi ulushi 5,9 % dan 4,3 % ga kamaydi.



**ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
(2021- yil yanvar-iyul, ming AQSH. doll.)**



**XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8 712,8	110,4
Tirik hayvonlar	5 080,9	255,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	55,0	15,3 b.
Sabzavotlar va mevalar	60,9	61,7
Go'sht va go'sht mahsulotlari	309,0	451,1
Shakar mahsulotlari va asal	24,1	2,4
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	361,8	497,7
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, molluskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	107,6	179,3
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 264,2	162,7

Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	6 980,6	78,9
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1 180,0	548,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	8,0	23,5
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	-	-
To'qimachilik tolalari	5,3	11,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9 141,8	219,4
Ko'mir, koks va briketlar	1 959,5	188,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	13,7	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	4 460,1	180,0
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	-	-
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 732,3	163,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	85,4	111,5
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	12 127,5	96,9
Organik kimyo moddalari	4 521,3	115,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	476,2	156,7
Noorganik kimyo moddalari	67,3	14,0
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	8,2	7,9
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	862,9	180,5
Rezina buyumlari	352,3	294,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar	799,6	104,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	108,2	240,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	597,0	86,5
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	6 787,3	188,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	35,1	104,5


Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	8 287,4	64,5 b.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	24 476,3	215,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	8 821,8	135,8
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning elektr qismlari	1 629,2	55,3
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	6 980,9	116,8
Metallarni qayta ishlash mashinalari	104,6	34,5
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	55,5	24,3
Avtomobililar	4 029,7	113,6
Boshqa transport vositalari	3689,8	17 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	241,1	61,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 790,7	230,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2 231,2	34,7
Poyabzal	1,5	-
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	32,0	26,7 b.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	25,1	182,2
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	5,6	16,0
Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	5 813,2	15,8 b
Transport xizmatlari	87,4	152,5
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	3 240,5	68,6
Moliyaviy xizmatlar	667,0	117,2

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (65,3 % ga pasaygan), har xil tayyor buyumlar (38,6 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importi kamayishiga esa, probka va yog'och-taxtalar (21,1% ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini umumiy import hajmida 16,7 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasi (16,2 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 41 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-iyul)**

Davlat nomi	ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	17573,8	22582,8	39,5	128,5	2	1
Rossiya Federatsiyasi	17581,5	21689,6	107,4	123,4	1	2
Koreya Respublikasi	16781,5	13264,5	77,1	79,0	3	3
Qozog'iston	8136,2	12690,5	61,3	156,0	4	4
Chvetsiya	134,7	8939,8	169,1	6639,2	31	5
Turkiya	855,0	7558,7	6,0	884,1	12	6
Vyetnam	5927,3	7088,6	89,4	119,6	5	7
Chexiya Respublikasi	118,5	6483,5	16,2	5473,0		8
Germaniya	511,7	5829,3	23,7	1139,3	20	9
Niderlandiya	177,6	5166,4	21,2	2909,6	29	10
BAA	227,3	4799,6	18,7	2111,2		11
Qirg'iz Respublikasi	847,5	2408,2	239,9	284,2	13	12
Latviya	2191,1	2354,3	95,4	107,4	6	13
Eron	1015,5	2138,5	29,1	210,6	8	14
Gonkong	234,4	1506,7	40,8	642,7	26	15
Ruminiya	1270,5	1353,3	101,1	106,5	7	16
Turkmaniston	827,9	1334,8	33,0	161,2	14	17
Polsha	932,5	800,0	47,1	85,8	10	18
Fransiya	139,0	794,2	947,4	571,4	30	19
Vengriya	-	658,4	-	-		20

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga to var va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Chvetsiya, Koreya Respublikasi, Vyetnam va Chexiya Respublikasi) jami importning 72,8 % ulushini tashkil qildi, bu 77,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-iyul, % da)**




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi,

Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



- Transport xizmatlari
- Safarlar (turizm)
- Moliyaviy xizmatlar
- Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari
- Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 5 813,2 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 1,7 % ga kupaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (55,7 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlar va (31,3 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (11,5 %) va transport xizmatlari (1,5 %) tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-06